

RAQAMLI BANK XIZMATLARI DIVERSIFIKATSIYASINING AHOLI DAROMADLARI VA ISTE'MOL XARAJATLARIGA TA'SIRI

Abdullayeva Irodaxon Xusniddin qizi

AIFU iqtisodiy o'nalishi 1-kurs magistri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlarining diversifikatsiyasi ya'ni mobil ilovalar, onlayn to'lovlar, raqamli kreditlar, jamg'arma mahsulotlari va QR-kod tizimlarini bir platformada birlashtirish – O'zbekiston aholisi daromadlari va iste'mol xarajatlariga qanday ta'sir etishi tahlil qilindi. Tadqiqot ishida xalqaro va mahalliy manbalarga asoslangan holda, moliyaviy inkluziya mexanizmlarini, vaqt tejash, xavfsiz tranzaksiyalar va qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar orqali daromadlar samaradorligining oshishi hamda xarajatlarning optimallashtirilishini ko'rib chiqildi. Natijalar ko'rishimiz mumkinki, xizmatlarning xilma-xilligi aholi daromadlarini samarali boshqarishga, oilaviy xarajatlarni barqarorlashtirishga va umumiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishga yordam beradi. Tadqiqotda ijobiy ta'sirlar bilan birga raqamli savodxonlik, qishloq hududlari infratuzilmasi va gender tafovutlari kabi muammolar ham muhokama qilindi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli bank xizmatlari, diversifikatsiya, aholi daromadlari, iste'mol xarajatlar, moliyaviy inkluziya, xalqaro tajriba,*

Annotation. *This article analyzes how the diversification of digital banking services – integrating mobile apps, online payments, digital credits, savings products, and QR-code systems on a single platform – affects the population's income and consumer expenditures in Uzbekistan. The study relies on international and local sources to examine mechanisms of financial inclusion, demonstrating growth in income efficiency and optimization of spending through time savings, secure transactions, and additional financial opportunities. The findings show that diversified services enable effective income management, stabilize household expenditures, and enhance overall economic activity. The research discusses positive impacts alongside challenges such as digital literacy, rural infrastructure, and gender gaps.*

Keywords: *Digital banking services, diversification, population income, consumer expenditures, financial inclusion, international experience,*

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние диверсификации цифровых банковских услуг – интеграции мобильных приложений, онлайн-платежей, цифровых кредитов, сберегательных продуктов и систем QR-кодов на единой платформе – на доходы населения и потребительские расходы в Узбекистане. Опирается на международные и местные источники и рассматривает механизмы финансовой*

инклюзии, демонстрируя рост эффективности доходов и оптимизацию расходов за счет экономии времени, безопасных транзакций и дополнительных финансовых возможностей. Результаты показывают, что диверсифицированные услуги способствуют эффективному управлению доходами, стабилизации семейных расходов и повышению общей экономической активности. В работе обсуждаются положительные эффекты наряду с проблемами цифровой грамотности, инфраструктуры сельских районов и гендерных различий.

Ключевые слова. Цифровые банковские услуги, диверсификация, доходы населения, потребительские расходы, финансовая инклюзия, Узбекистан, международный опыт, финтех.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar bugungi iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan bir paytda, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi jadal transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mobil ilovalar, onlayn banking platformalari, raqamli to‘lov tizimlari va fintech xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy hayotini tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Raqamli bank xizmatlarining diversifikatsiyasi deganda bir nechta xizmat turlarini – oddiy to‘lovlardan tortib, kreditlar, jamg‘armalar va investitsiyalargacha – bitta qulay platformada birlashtirish tushuniladi. Bu nafaqat banklar uchun yangi imkoniyatlar ochadi, balki oddiy fuqarolar, ayniqsa, kichik tadbirkorlar va oilalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu diversifikatsiya aholi daromadlarini samarali boshqarish va iste‘mol xarajatlarini optimallashtirishga qanday ta’sir etishi hamon dolzarb savollardan biri bo‘lib qolmoqda. An’anaviy bank xizmatlari cheklangan rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli xizmatlarning kengayishi moliyaviy inkluziyani kuchaytiradi, daromadlarning barqarorligini ta’minlaydi va xarajatlarni kamaytiradi. O‘zbekistonda ish haqi va pensiya to‘lovlarini kartalar orqali amalga oshirish, Payme, Click, Uzum Bank kabi mobil ilovalar va Humo, Uzcard tizimlarining rivojlanishi aholini rasmiy moliya tizimiga jalb qilmoqda. Natijada fuqarolar moliyaviy operatsiyalarni masofadan turib, tez va xavfsiz bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shuningdek Xalqaro tajribalarda ham shunga o‘xshash jarayonlar kuzatilgan. Misol sifatida ko‘rishimiz mumkinki, Keniya yoki Bangladeshdagi mobil pul tizimlari daromad manbalarini diversifikatsiya qilib, oilaviy xarajatlarni barqarorlashtirgan va hatto kutilmagan vaziyatlarda xavfsiz yordam berishga yordam bergan. O‘zbekistonda ham hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan raqamli to‘lovlar kichik biznes egalari uchun mijozlar sonini oshirish va xalqaro yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish imkonini yaratmoqda.

Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘lishni tezlashtiradi, balki aholining umumiy farovonligini oshirishga hissa qo‘shadi.

METODLAR

Tadqiqot ishi ikkinchi darajali ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlarning sifatli tahliliga asoslandi. Asosiy manbalar sifatida Jahon bankining Global Findex Database (2021 va keyingi yangilanishlar), Xalqaro valyuta jamg‘armasining O‘zbekiston bo‘yicha 2024 -yilgi Article IV hisoboti, BMT Taraqqiyot dasturining “O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti” tadqiqoti hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari tanlangan. Bundan tashqari, mahalliy ilmiy maqolalar va fintech bozori haqidagi tahlillar ham jalb qilingan. Metodologiya sifatida kontent va mexanizmlar tahlili qo‘llanildi: hisobotlardan olingan tavsifiy ma’lumotlar sintez qilinib, daromad boshqaruvi, xarajat optimallashtirish, risklarni yumshatish va moliyaviy inkluziya mexanizmlari aniqlangan. Raqamli statistik ko‘rsatkichlardan minimal foydalanilgan, asosiy e’tibor sifatli misollar, real tajribalar va mexanizmlarga qaratilgan. Tadqiqot doirasi 2018-2025 yillardagi O‘zbekiston va xalqaro tajribalarni qamrab oladi. Ma’lumotlar tanlashda ishonchlik, dolzarblik va sifatli tavsiflar mezonlari qo‘llanilgan.

NATIJALAR

Raqamli bank xizmatlarining diversifikatsiyasi birinchi navbatda moliyaviy inkluziyani kuchaytiradi va aholini rasmiy hisoblarga jalb qiladi. O‘zbekistonda ish haqi va pensiya to‘lovlarini kartalar orqali o‘tkazish, mobil ilovalar orqali tez tranzaksiyalar qilish imkoniyati fuqarolarga moliyaviy operatsiyalarni qulay boshqarishga yordam berib kelmoqda. Natijada vaqt tejash, naqd pul bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, kichik tadbirkorlar raqamli to‘lovlarni qabul qilish orqali mijozlar sonini oshirishga, biznesni masofadan turib boshqarishga va hattoki xalqaro yetkazib beruvchilar bilan ishlay boshlashdi Bu jarayon daromad manbalarini diversifikasiya qilishga katta yo‘l ochib berdi. Iste’mol xarajatlariga ta’sir esa xarajatlarni optimallashtirish va barqarorlashtirishda ko‘rinadi. Raqamli to‘lovlar kommunal xizmatlar, kundalik xaridlar va onlayn savdoni tezlashtiradi, navbatlar va qo‘shimcha xarajatlarni kamaytiradi. Natijada oilalar xarajatlarini oldindan rejalashtirish, zarur bo‘lmagan chiqimlarni cheklash va hatto sifatli mahsulotlarga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jahon banki tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, raqamli xizmatlarning diversifikatsiyasi (to‘lov + jamg‘arma + kredit) kutilmagan holatlarda (masalan, ish yo‘qotish yoki tabiiy ofatlar) mablag‘larni tez ishlatishga yordam beradi, bu esa xarajatlar strukturasini yaxshilaydi va oilaviy farovonlikni oshiradi. Umuman olganda, xizmatlarning xilma-xilligi (mobil ilovalar, onlayn kreditlar, QR-kod to‘lovlari va virtual hamyonlar) daromadlar samaradorligini oshiradi, xarajatlarning samarali boshqarilishini ta’minlaydi va aholining umumiy iqtisodiy faolligini kuchaytiradi.

Bu ta'sir nafaqat shahar aholisi, balki qishloq va ayollar uchun ham sezilarli bo'lib, moliyaviy mustaqillikni oshiradi.

MUHOKAMA

Olingan natijalarni xalqaro tajriba bilan solishtirganda O'zbekistonning taraqqiyoti ijobiy yo'nalishda ekanligi haqidagi xulosaga kelindi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi, daromadlarni samarali boshqarish va xarajatlarni yumshatish mexanizmlari orqali ta'kidlangan. Masalan, Keniya yoki Bangladeshdagi mobil pul tizimlari daromad manbalarini diversifikatsiya qilib, oilaviy xarajatlarni barqarorlashtirgan va ayollarning moliyaviy mustaqilligini oshirgan. O'zbekistonda Visa hisobotida keltirilgan misollar – kichik biznes egalari raqamli to'lovlarni qabul qilish orqali mijozlar sonini oshirgani va operatsiyalarni soddalashtirgani – shunga o'xshash ta'sirni tasdiqlaydi. Biroq, ta'sirning to'liq amalga oshishi uchun bir qator muammolar mavjud. Raqamli savodxonlikning pastligi, ayniqsa, keksa avlod va qishloq aholisi orasida, xizmatlardan to'liq foydalanishni cheklaydi. Kibertahdidlar va xizmatlarning barqarorsizligi ham aholining raqamli bankka bo'lgan ishonchini zaiflashtirishi mumkin. Bu omillar daromad va xarajatlar ta'sirini kamaytirishi mumkin, shuning uchun avvalo shu jihatlarni bartaraf etish zarur hisoblanadi. Qo'shimcha qilib ayta olamizki, diversifikatsiya nafaqat daromadni oshiradi, balki xarajatlarni ham samarali qilad. Buni quyidagilarda ko'rib o'tamiz: onlayn jamg'armalar foiz olish imkonini beradi, raqamli kreditlar biznesni rivojlantiradi va oilaviy byudjetni mustahkamlaydi. Xalqaro va mahalliy tajribalarni solishtirganda O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan choralarni yanada kuchaytirish lozim. Bu orqali aholining umumiy farovonligi oshadi va iqtisodiyot barqaror rivojlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib ayta olamanki, raqamli bank xizmatlari diversifikatsiyasi O'zbekiston aholisi daromadlari va iste'mol xarajatlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Moliyaviy inkluziya, vaqt tejash, xavfsiz tranzaksiyalar va qo'shimcha imkoniyatlar orqali daromadlar samarali boshqarilmoqda, xarajatlar optimallashtirilmoqda va oilaviy farovonlik oshmoqda. Xalqaro tajribalar va mahalliy hisobotlarga tayangan holda quyidagicha xulosa qilindi: Kelgusida ta'sirni yanada kuchaytirish uchun raqamli savodxonlikni oshirish, qishloq infratuzilmasini yaxshilash, gender tafovutlarini bartaraf etish va kibertahdidlarni oldini olish choralarni kuchaytirish zarur. Tadqiqot natijalari asosida siyosatchilar va banklar uchun amaliy tavsiyalar quyidagilardir: raqamli xizmatlarni yanada diversifikatsiya qilish, aholiga qulay qilish va moliyaviy inkluziyani kengaytirish. Bu choralarni amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va aholining umumiy farovonligiga katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Visa. (2023). Unlocking the Benefits of Digital Payments: Insights from Uzbekistan.
2. World Bank. (2021). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience.
3. International Monetary Fund. (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation.
4. UNDP. (2025). O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti (Uzbekistan Digital Economy Study).
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023-2025). Yillik hisobotlar.
6. Mamadiyarov, A. va boshq. (2024). Raqamli moliyaviy xizmatlarning O‘zbekistonda moliyaviy inkluziyaga ta’siri.